

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI  
HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI**



**SAMARQAND VILOYATIDA CHAKANA VA ULGURJI  
SAVDO  
TOVAR AYLANMASI**



*Dastlabki ma'lumot  
2023-yil yanvar-noyabr*




## CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

**Statistik ma'lumotlar** jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistika ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Jumladan, ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

2023-yil 1-dekabr holatiga ko'ra viloyat bo'yicha chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar soni **12 572** tani tashkil etmoqda (o'sish sur'ati **88,3** %). Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **41** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **12 531** tani tashkil qildi.

Shuningdek, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YaTTlar va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlar asosi da yig'ilgan ma'lumotlari, chakana savdo ko'rsatkichlarida aks etgan.

### Chakana savdo aylanmasining asosiy ko'rsatkichlari



Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2023-yilning yanvar-noyabr oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi **24 966,5** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **107,0** % ni tashkil etdi.

Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **4 817,8** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **101,2** %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **20 148,7** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **108,4** %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **2 312,3** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **112,3** %) tashkil etdi.

# CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI



**Chakana savdo aylanmasi** – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.


	Jami mlrd. so'm	2022-yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan, %	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022-yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan, %	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2022-yil yanvar – noyabr oylariga nisbatan, %
Samarqand viloyati	<b>24 966,5</b>	<b>107,0</b>	<b>4 817,8</b>	<b>101,2</b>	<b>20 148,7</b>	<b>108,4</b>
Samarqand sh.	8 658,0	107,9	3 605,5	95,6	5052,5	118,9
Kattaqo'rg'on sh.	1 434,3	101,8	1,3	85,8	1 433,0	101,9
tumanlar:						
Oqdaryo	583,9	104,6	12,2	2,0 m.	571,6	103,5
Bulung'ur	1 006,7	105,5	28,8	107,5	977,9	105,4
Jomboy	922,2	105,8	120,6	127,4	801,6	103,1
Ishtixon	820,3	109,3	6,0	92,8	814,3	109,4
Kattaqo'rg'on	1 268,2	108,1	52,1	5,7 m.	1 216,1	104,5
Qo'shrabot	323,0	106,3	4,7	93,0	318,3	106,5
Narpay	983,8	104,6	6,7	81,2	977,1	104,8
Payariq	901,0	104,6	6,9	88,1	894,2	104,8
Pastdarg'om	1 187,3	105,3	43,3	135,1	1144,0	104,4
Paxtachi	611,1	104,2	6,1	86,3	604,9	104,4
Samarqand	2 444,9	108,8	861,0	119,4	1 584,0	103,8
Nurobod	385,7	103,1	4,7	96,3	381,0	103,2
Urgut	2 606,1	107,0	41,6	101,2	2 564,5	107,1
Toyloq	830,0	114,6	16,3	99,9	813,7	114,9

2023-yilning yanvar-noyabr oylarida 2022-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan Toyloq (**114,6 %**), Ishtixon (**109,3 %**), Samarqand (**108,8 %**), Kattaqo'rg'on (**108,1 %**), Samarqand shahri (**107,9 %**), Upgut (**107,0 %**) va Jomboy (**105,8 %**) hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.



## YILLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI


Chakana savdo tovar aylanmasi dinamikasi,  
yanvar-noyabr, mlrd. so'm



So'nggi **6 yillikda** chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'ati 2022-yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2021-yilning mos davriga nisbatan **111,4 %** yoki **22 861,3** mlrd. so'mni tashkil qildi.


### Chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati oylar kesimida, foizda

2022-2023-yil yanvar-noyabr oylari



2023-yilning yanvar-noyabr oylarida o'sish sur'ati 107,0 % ni tashkil qildi.

## Hududlarning chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, foizda



- |                 |                     |             |
|-----------------|---------------------|-------------|
| ■ Samarqand sh. | ■ Kattaqo'rg'on sh. | ■ Oqdaryo   |
| ■ Bulung'ur     | ■ Jomboy            | ■ Ishtixon  |
| ■ Kattaqo'rg'on | ■ Qo'shrabot        | ■ Narpay    |
| ■ Payariq       | ■ Paxtachi          | ■ Samarqand |
| ■ Pastdarg'om   | ■ Nurobod           | ■ Urgut     |
| ■ Toyloq        |                     |             |


Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Samarqand shahri **34,7 %** bilan **8 658,0** mlrd. so'mni, eng quyi ulush esa Qo'shrabot tumani **1,3 %** bilan **323,0** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Viloyatning chakana savdo tovar aylanmasida Toyloq (**114,6 %**), Ishtixon (**109,3 %**), Samarqand (**108,8 %**), Kattaqo'rg'on (**108,1 %**), Urgut (**107,0 %**) va Jomboy (**105,8 %**) tumanlarida yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.


## CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi, statistik hisob-kitoblarga ko'ra **20 148,7** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **8,4** % ga ko'paydi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **80,7** % ni tashkil etdi.

### Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar, foizda




### Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar, foizda



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi 2022-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **101,2** % ni va **4 817,8** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **19,3** % ulushiga to'g'ri keldi.

## CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, *foizda*



■ Yirik korxonalar

■ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Kattaq'org'on shahri (**99,9 %**) va Ishtixon (**99,3 %**), Narpay (**99,3 %**), Payariq (**99,2 %**), tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi **19,3 %** ni tashkil etib, eng katta ulush Samarqand shahri (**41,6 %**) va Samarqand (**35,2 %**), Jomboy (**13,1 %**), Kattaqo'rg'on (**4,1 %**) tumanlarida kuzatildi.

## AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

### Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, ming so'm	O'sish sur'ati, foizda
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>6 013,0</b>	<b>104,7</b>
Samarqand sh.	14 987,1	105,8
Kattaqo'rg'on sh.	15 258,5	100,2
tumanlar:		
Oqdaryo	3 420,4	102,1
Bulung'ur	5 053,6	103,2
Jomboy	4 942,0	103,2
Ishtixon	3 012,5	106,9
Kattaqo'rg'on	4 371,6	106,0
Qo'shrabot	2 305,2	104,2
Narpay	4 374,6	102,7
Payariq	3 345,9	102,1
Pastdarg'om	3 140,9	103,1
Paxtachi	4 049,5	102,6
Samarqand	9 075,5	106,4
Nurobod	2 401,6	101,1
Urgut	4 733,2	104,3
Toyloq	3 812,6	111,8

Viloyat bo'yicha 2023-yilning yanvar-noyabr holatiga ko'ra o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **6 013,0** ming so'mni (2022-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **104,7** % ni) tashkil etdi.

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Kattaqo'rg'on shahri (**15 258,5** ming so'm), Samarqand shahri (**14 987,1** ming so'm) va Samarqand (**9 075,5** ming so'm), Bulung'ur (**5 053,6** ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.




# UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI



Viloyat bo'yicha 2023-yilning yanvar-noyabr oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **2 312,3** mlrd. so'mni, 2022-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **112,3** % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12-bozor (oylik) va 12-bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarda savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **948,7** mlrd. so'mni (**152,0** %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **1 363,6** mlrd. so'mni (**95,0** %) tashkil etdi.

## Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'mda




## Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati, foizda



## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda uyushmagan savdo tovar aylanmasi ham hisoblanadi. Bu ko'rsatkich dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari hisobidan shakllanadi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.

### Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati, foizda



**Dehqon (oziq-ovqat) bozori** – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlari va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shaxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.












## UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON\* VA CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

	Jami, mlrd. so'm	2022-yil yanvar- noyabr oylariga nisbatan, %	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2022-yil yanvar- noyabr oylariga nisbatan, %	Chorva bozorlari, mlrd. so'm	2022-yil yanvar- noyabr oylariga nisbatan, %
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>2 312,3</b>	<b>112,3</b>	<b>948,7</b>	<b>152,0</b>	<b>1 363,6</b>	<b>95,0</b>
Samarqand sh.	176,6	144,4	169,2	143,1	7,4	182,4
Kattaqo'rg'on sh.	263,9	70,4	110,3	165,5	153,5	49,8
tumanlar:						
Oqdaryo	133,6	105,3	12,1	80,7	121,5	108,6
Bulung'ur	194,7	113,0	50,9	97,6	143,8	119,7
Jomboy	214,4	125,4	145,3	179,9	69,0	76,5
Ishtixon	189,3	151,7	92,0	4,0 m.	97,4	95,6
Kattaqo'rg'on	148,3	100,8	49,6	126,9	98,7	91,4
Qo'shrabot	112,6	111,3	23,7	183,2	88,8	100,7
Narpay	37,0	144,1	24,9	117,1	12,1	2,7 m.
Payariq	145,3	88,0	61,7	144,9	83,6	68,3
Pastdarg'om	86,2	87,9	7,8	48,1	78,5	95,7
Paxtachi	97,6	116,4	36,9	115,8	60,7	116,8
Samarqand	86,8	160,8	7,3	150,5	79,5	161,8
Nurobod	83,1	97,6	27,9	89,5	55,2	102,2
Urgut	135,0	129,7	83,1	192,1	51,9	85,3
Toyloq	207,9	2,0 m.	46,0	182,0	162,0	2,1 m.

\* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishini hisobga olingan.











2023-yilning yanvar-noyabr oylarida, viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra, savdo aylanmasi hajmi **948,7** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**430,5** mlrd. so'm) to'g'ri keldi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari		Mrd. so'm
	<b>Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari</b>	<b>430,5</b>
	<b>Non va non mahsulotlari</b>	<b>148,3</b>
	<b>Don mahsulotlari</b> (Mosh, loviya, guruch va boshqalar)	<b>99,4</b>
	<b>Tovuq go'shti</b>	<b>69,4</b>
	<b>Qurilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari</b> (Yong'oq, bodom, pista va boshqalar)	<b>51,0</b>
	<b>Sut va sut mahsulotlari</b> (Sir, brinza,...)	<b>27,4</b>
	<b>Tuxum</b>	<b>31,9</b>
	<b>Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak</b>	<b>11,8</b>
	<b>Ziravorlar</b>	<b>30,9</b>
	<b>Tuzlamalar</b>	<b>26,9</b>
	<b>Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari</b> (Manzarali va qishloq xo'jaligi)	<b>3,9</b>
	<b>Nooziq-ovqat tovarlari</b>	<b>17,3</b>



## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI, mlrd so‘m

2023-yilning yanvar-noyabr oylarida, viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida, parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi **1 363,6** mlrd. so‘mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi **1 098,7** mlrd. so‘m, qo‘y va echkilar **190,0** mlrd. so‘m, otlar **67,3** mlrd. so‘m hamda parrandalar **7,6** mlrd. so‘mni tashkil qildi.

Chorva mollari (parrandalar)		Mrld. so‘m
	2 yoshdan kata bo‘lgan qoramollar	645,8
	1 yoshdan 2 yoshgacha bo‘lgan yosh mollar	287,5
	1 yoshgacha bo‘lgan yosh mollar	165,4
	Qo‘ylar	155,7
	Otlar	67,2
	Echkilar	34,3
	Kurka, o‘rdak, g‘oz	2,4
	Tovuqlar	5,2
	Quyionlar	0,1
	Qushlar	0,076

## UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI



2023-yil 1-dekabr holatiga ko'ra umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni **2 977** tani shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **6** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni esa **2 971** tani tashkil qildi.


2023-yilning yanvar-noyabr oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi **1 027,9** mlrd. so'mni (**116,7** % ni) tashkil etib, 2022-yilning mos davriga nisbatan **16,7** % ga ko'paydi. Bunda savdo aylanmasining **67,9** % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.

	Jami mlrd. so'm	2022-yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan, %	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022-yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan, %	Kichik biznes va mikrofirmalar, mlrd. so'm	2022-yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan, %
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>1 027,9</b>	<b>116,7</b>	<b>329,6</b>	<b>138,0</b>	<b>698,3</b>	<b>108,8</b>
Samarqand sh.	480,8	105,8	76,3	92,5	404,5	108,8
Kattaqo'rg'on sh.	21,6	108,8	-	-	21,6	108,8
tumanlar:						
Oqdaryo	4,0	106,0	-	-	4,0	106,0
Bulung'ur	23,6	115,7	11,6	128,9	11,9	105,1
Jomboy	16,1	110,2	-	-	16,1	110,2
Ishtixon	5,4	107,3	-	-	5,4	107,3
Kattaqo'rg'on	12,0	108,0	-	-	12,0	108,0
Qo'shrabot	8,5	109,3	-	-	8,5	109,3
Narpay	10,6	107,1	-	-	10,6	107,1
Payariq	11,2	106,8	-	-	11,2	106,8
Pastdarg'om	80,3	101,9	17,1	82,9	63,2	108,6
Paxtachi	10,9	108,5	-	-	10,9	108,5
Samarqand	50,1	108,3	-	-	50,1	108,3
Nurobod	9,4	110,4	-	-	9,4	110,4
Urgut	27,2	111,7	-	-	27,2	111,7
Toyloq	256,3	164,9	224,6	177,2	31,7	110,5

## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

2023-yilning yanvar-noyabr oylarida avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*IFUT-2 45-bo'lim 45.2 va 45.40.3 kodlaridan tashqari – motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish*) **2 221,1** mlrd. so'mni tashkil etib, o'tkan yilning mos davriga nisbatan **121,0** % ni tashkil qildi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi **393,4** mlrd. so'm (o'sish sur'ati **111,3** %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi **1 827,8** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **123,3** %) tashkil qildi.

### Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi o'sish sur'ati, foizda



## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi



### Hududlar kesimida ma'lumot


	Hajm, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>2 221,1</b>	<b>100</b>
Samarqand sh.	1 631,9	73,5
Kattaqo'rg'on sh. tumanlar:	11,8	0,5
Oqdaryo	10,8	0,5
Bulung'ur	6,3	0,3
Jomboy	1,5	0,1
Ishtixon	9,1	0,4
Kattaqo'rg'on	16,2	0,7
Qo'shrabot	0,4	0,02
Narpay	8,1	0,4
Payariq	2,3	0,1
Pastdarg'om	0,4	0,02
Paxtachi	4,6	0,2
Samarqand	57,0	2,5
Nurobod	28,5	1,3
Urgut	1,5	0,1
Toyloq	430,7	19,4

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Samarqand shahri (**1 631,9** mlrd. so'm), Toyloq (**430,7** mlrd. so'm) va Samarqand (**57,0** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.




**Ulgurji savdo tovar aylanmasi** – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning qiymati, ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar.

## Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘mda



Viloyat bo‘yicha 2023-yilning yanvar-noyabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **13 609,5** mlrd. so‘mni tashkil etib, 2022-yilning mos davriga nisbatan **19,0 %** ga o‘ydi.



Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda **7 947,6** mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2022-yilning mos davriga nisbatan **92,9 %** ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi **58,4 %** ni tashkil qildi.


## ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK VA KICHIK KORXONALAR



Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega yirik korxonalar Samarqand shahrida (2,2 m.), Toyloq (2,1 m.), Pastdarg'om (132,5 %), Samarqand (178,8 %) va Bulung'ur (100,8 %) tumanlarida kuzatildi.

2023-yil 1-dekabr holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni **3 027** tani shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **37** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **2 990** tani tashkil qildi.

	Jami mlrd. so'm	2022-yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan, %	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022-yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan, %	Kichik biznes va mikrofirmalar, mlrd. so'm	2022-yil yanvar – noyabr oylariga nisbatan, %
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>13 609,5</b>	<b>119,0</b>	<b>5 662,0</b>	<b>196,8</b>	<b>7 947,6</b>	<b>92,9</b>
Samarqand sh.	8 867,7	122,5	4 468,7	2,2 m.	4 398,9	85,2
Kattaqo'rg'on sh.	324,9	101,5	1,3	23,2	323,5	102,9
tumanlar:						
Oqdaryo	88,2	100,1	-	-	88,2	100,1
Bulung'ur	349,7	98,3	272,4	100,8	77,2	90,3
Jomboy	182,6	90,9	36,2	97,6	146,4	89,3
Ishtixon	104,6	105,4	-	-	104,6	105,4
Kattaqo'rg'on	224,1	102,9	-	-	224,1	103,3
Qo'shrabot	35,0	94,6	0,2	77,7	34,9	94,7
Narpay	148,2	97,0	0,5	60,3	147,7	97,2
Payariq	76,7	105,6	-	-	76,7	105,6
Pastdarg'om	511,3	105,7	153,3	132,5	358,1	97,3
Paxtachi	26,7	99,8	0,3	30,5	26,5	102,1
Samarqand	1 022,4	115,1	314,2	178,8	708,2	99,4
Nurobod	83,8	98,1	0,2	97,2	83,7	98,1
Urgut	615,9	107,0	-	-	615,9	107,0
Toyloq	947,7	160,1	414,7	2,1 m.	533,0	134,1



**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi bo'limi  
Tel. 66-235-65-80**